# I. TRANSPORT

**Yuk tashish.** 2018 yil yanvar-iyunida barcha transport turlari tomonidan 20,7 mln. tonna yuk tashilgan bo'lib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,9 foizga ko'paydi.

**Yuk aylanmasi** barcha transport turlari tomonidan 487,1 mln.tn-km.ni tashkil qildi va 101,2 foizga ko'paydi.

**Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari bo'yicha**

| | *2018 yil yanvar-iyun* | *2017 yil yanvar-iyunga nisbatan foiz hisobida* |
|---|---|---|
| Tashilgan yuk, *mln. tn* | 20,7 | 101,9 |
| *shu jumladan:* | | |
| avtomobil transportida | 20,7 | 101,9 |
| Yuk aylanmasi, mln. tn-km | 487,1 | 101,2 |
| *shu jumladan:* | | |
| avtomobil transportida | 487,1 | 101,2 |

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transporti yuk aylanmasi 2017 yil yanvar-iyunga nisbatan 101,8 foizga ko'paydi va 402,2 mln. tn-km.ni tashkil qildi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 82,6 foizni tashkil qildi (2017 yil yanvar-iyunda 82,1 %)

2018 yil yanvar-iyunda barcha transport turlari tomonidan 219,5 mln. kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,5 foizga ko'paydi. Yo'lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 101,9 foizga ko'payib, 7055,3 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil qildi.

**Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi**

| | *2018 yil yanvar-iyun* | *2017 yil yanvar-iyunga nisbatan foiz hisobida* |
|---|---|---|
| Transportda tashilgan yo'lovchilar, *mln. kishi* | 219,5 | 100,5 |
| *shu jumladan,* avtomobil transportida | 219,5 | 100,5 |
| Yo'lovchi aylanmasi, *mln. yo'lovchi-km* | 7055,3 | 101,9 |
| *shu jumladan*, avtomobil transportida | 7055,3 | 101,9 |

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning yo'lovchi tashuvchi avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasi 2017 yil yanvar-iyunga nisbatan 102,3 foizga ko'paydi va 6663,5 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil qildi.

Yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida xususiy yo'lovchi tashuvchilarning ulushi 94,4 foizni (2017 yil yanvar-iyunda 94,1 %) tashkil qildi.

**Yuk va yo'lovchi aylanmasining yanvar-iyun oylaridagi umumiy hajmi**

